



ISHBILARMONLIK MUHITINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLARNI PROGNOZLASH MODELLARINI QO'LLASH

Xomidov Zohidjon Adhamjonovich

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10464237>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-January 2024 yil

Ma'qullandi: 04- January 2024 yil

Nashr qilindi: 06- January 2024 yil

KEY WORDS

Iqtisodiy prognozlash, Biznes muhiti, Modellashtirish texnikasi, Prognozning aniqligi, Iqtisodiy ko'rsatkichlar, Dinamik tabiat

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqola biznes muhitini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan iqtisodiy ko'rsatkichlarni prognozlashning ilg'or modellarini qo'llashni o'rganadi. Tadqiqot biznesni rivojlantirish traektoriyasini tushunish uchun muhim bo'lgan asosiy iqtisodiy o'zgaruvchilarni bashorat qilish uchun murakkab modellashtirish usullaridan foydalanishga qaratilgan. Ilg'or prognozlash modellarini qo'llash orqali tadqiqot iqtisodiy ko'rsatkichlarning dinamik tabiati va ularning biznesning umumiy manzarasiga ta'siri haqida tushuncha berishga qaratilgan.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlikka qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni mamlakat YaIMdagi ulushini matematik modellarni qo'llash orqali ishonchli va ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda optimal darajada to'g'ri prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada prognoz qilishning nazariy asoslari va usullari, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni YaIMdagi ulushiga ta'sir qiluvchi omillarning regression tahlili amalga oshirilgan va ekonometrik modellar orqali prognoz qilish tartibi o'rganilgan.

Bugungi kunda mamlakat YaIMda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari ulushining qay darajada bo'lishi ularda band bo'lgan aholining salmog'i, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar miqdori va soliq imtiyozlaridan foydalanayotgan ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari soniga ham bevosita bog'liq. Shuni hisobga olgan holda, ushbu ko'rsatkichlarni matematik usullardan foydalangan holda istiqbol davrga mo'ljallangan ilmiy prognozlar ishlab chiqish zarurati bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Prognozlashtirish – boshqarishning iqtisodiy usullaridan biri bo'lib, iqtisodiy tizimning kelgusidagi holatini aniqlab beruvchi rejalar ishlab chiqish va amalga oshirish yo'llari, usullari va vositalari yig'indisidir. Prognozlash - o'rganilayotgan obyektning turiga

ko'ra iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, resurs - tabiiy, demografik va ijtimoiy turlariga tavsiflanadi. Prognozlash sohasiga ko'ra – ijtimoiy prognozlash, iqtisodiy prognozlash va ilmiy-texnikaviy prognozlash turlarga ajratiladi. Ma'lumotlarni olish va qayta ishlash usulidan kelib chiqib prognozlashtirish – ekstropolyatsiya metodi, qiyoslash metodi, statistik metodlarga bo'linadi. Bashoratlash obyektining miqyosiga qarab iqtisodiy bashoratlar alohida korxonalar va tashkilotlar (mikrodarajada) bashoratidan to mamlakat miqyosida (makrodaraja) tarmoqlar rivojlanishning bashoratigacha bo'lgan yoki dunyo miqyosidagi qonuniyatlarni (global daraja) barcha darajalarini qamrab oladi.

Bashoratlash davri muddatiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- tezkor bashoratlar bir oygacha;
- qisqa muddatli bashoratlar bir yilgacha;
- o'rta muddatli bashoratlar besh yilgacha;
- uzoq muddatli bashoratlar o'n besh yildan yuqori.

Ekonometrika – iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy tomonlarini iqtisodiyot nazariyasi, tahlili, statistika va matematik-statistikaning usullari asosida talqin qilishning nazariy natijalar to'plami, usullari va yo'llarini birlashtiruvchi fan. «Ekonometrika» so'zi - ekonomika va metrika (o'lchov) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, u Nobel mukofoti sovrindori Norvegiya iqtisodchi olimi R.Frishi tomonidan kiritilgan. Ekonometrikada ehtimollar nazariyasi va matematik statistikada o'rganiladigan korrelyatsion va regression tahlil, davriy qatorlar tahlili, bir jinsli tenglamalar tizimi, va boshqa usullar foydalaniladi. Ekonometrikaning asosida iqtisodiy modellar yotadi. Bu modellar iqtisodiy jarayonlarni bashoratlash, tahlil qilishda ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun xizmat qiladi.

Mamlakat YaIMda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari ulushining o'sishiga ta'sir etuvchi omillar ularda band bo'lgan aholining salmog'i, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar miqdori va soliq imtiyozlaridan foydalanayotgan ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari sonining regression tahlili va YaIMda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari salmog'ini kelgusi besh yilga ekonometrik modellar orqali ilmiy prognozi amalga oshirilgan. Ekonometrik modellar orqali regression tahlil asosida kichik tadbirkorlik subyektlarini YaIMdagi ulushini prognozlashni amalga oshiramiz. Ma'lumotlarni tahlil qilishda regression tahlil eng keng tarqalgan usullardan biri bo'lib hisoblanadi.

Berilgan son qiymatlarni tahlil qilishda erkli o'zgaruvchi (X) va erksiz (Y) o'zgaruvchilar qaraladi. Regression tahlil ana shu o'zgaruvchilar qiymatlarining o'zgarishini tushuntirib beradi. Regressiya tenglamasi – bu o'zgaruvchilar orasidagi statistik bog'lanishning formulasi. Agar bu formula chiziqli bo'lsa, chiziqli regressiya to'g'risida so'z yuritiladi. Ikki o'zgaruvchi orasidagi statistik bog'lanish formulasi juft regressiya deyiladi, bir nechta o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanish esa ko'p omilli regressiya deyiladi.

Korrelyatsion tahlilning ikkinchi vazifasi hodisalar (o'zgaruvchilar) o'rtasidagi bog'lanish zichligini aniqlashdan iboratdir. Bu korrelyatsion indeksi $R \leq 1$ va chiziqli korrelyatsion koeffitsient $r \leq 1$ larning sonli qiymatlarini hisoblash yo'li bilan tekshiriladi. Agar $R=1$ ($r=1$) bo'lsa, unda o'rganilayotgan omillar o'rtasida funksional bog'lanishlar mavjud bo'ladi. Agar $R=0$ ($r=0$) bo'lsa, bu holda omillar o'zaro bog'lanmagan bo'ladi. Bog'lanish zichligi R va r larning sonli qiymatlari bo'yicha baholashda quyidagi shartli tasniflash foydalaniladi:

0,1 dan 0,3 gacha - kuchsiz bog'lanish; 0,3 – 0,65 - o'rtacha zich bog'lanish; 0,65 – 0,80 - o'rtachadan zichroq bog'lanish; 0,80 – 0,99 - zich bog'lanish.

Korrelyatsion indeks R juftli omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini baholashda foydalaniladi. Chiziqli bog'lanishlar zichligini aniqlashda korrelyatsiya koeffitsientidan foydalanish mumkin. Korrelyatsiya koeffitsienti r ning manfiy qiymati hodisalar o'rtasida teskari bog'lanish mavjud ekanligidan dalolat beradi. Davlat statistika qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasining ma'lumotlari asosida ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakat YaIMdagi ulushi natijaviy omilga (Y) bir qancha ta'sir etuvchi omillarning (X_1 , X_2 , X_3) regression tahlilini ko'rib chiqamiz. Buning uchun quyidagi jadval ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi (3.1-jadval): 1-jadval ma'lumotlari tahlilida (Y) natijaviy omil sifatida ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni YaIM ulushi olindi. Ta'sir etuvchi omillar sifatida: ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligi ulushi (X_1), ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ajratilgan kreditlar miqdori (X_2) va soliq imtiyozlaridan foydalangan ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari soni (X_3) olindi. Jadval ma'lumotlarini kompyuter Microsoft Excel dasturi yordamida yordamida qayta ishlash asosida quyidagi regression tahlil natijalariga erishiladi.

Demak, matematik model tahlilining ko'rsatishicha, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligi, berilgan kreditlar miqdori va soliq imtiyozlaridan foydalanayotgan ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari sonining oshishi, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish YaIMdagi ulushini kamaytirmaydi, aksincha oshiradi. O'zbekistonda ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish korxonalari mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish hajmi va YaIMdagi ulushiga ta'sir etuvchi turli omillarning bog'liqligi iqtisodchi olimlar tomonidan o'z ilmiy ishlarida ekonometrik modellarga asosan tahlil qilingan. Xususan, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish korxonalari mahsulot (xizmat) ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni har ming kishiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori va ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish korxonalari sonining o'zaro bog'liqligi regression tahlil qilingan.

Tahlil natijalariga ko'ra, har ming kishi aholi soniga to'g'ri keladigan investitsiyalarning o'rtacha hajmining 1 foizga oshishi ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish subyektlari tomonidan yaratiladigan tovarlar va xizmatlar hajmining 0,48 foizga oshishiga va ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish korxonalari sonining 1 foizga ko'payishi ular tomonidan yaratiladigan tovarlar va xizmatlar hajmining 2 foizga oshishiga olib kelishi asoslangan. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish asosida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va istiqbolini aniq prognoz qilish, mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, tadbirkorlikka qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston", 2017. 32 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Parlamentga yo'llagan Murojaatnomasi
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2018-yil 29-dekabr.
4. Abdullayev Y., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010. – 349 b.
5. Abdusattarova X.M. Innovatsiya strategiyasi. T.: TDIU, 2011. B.39.
6. Bekmurodov A.Sh., Majidov I.U., G'afurov A.V. Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan. T.: O'qituvchi. 2011. 124-b.
7. Boltabayev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjayeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjayev R. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 275 b.
8. Egamberdiyev E., Xo'jaqulov X. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: TMI, 2003. – 186 b.
9. Fatxutdinov R.A. Innovatsionnyy menedjment. – Spb.: Piter, 2004.
10. Taev A.G. Razvitie finansovoy sredy predprinimatelstva na munisipalnom mezourovne. Avtoref. diss. na sois. uchen. step. k.e.n. - Volgograd: VGU, 2007. - 21 s.



INNOVATIVE
ACADEMY